

BACHADON ATONIYASI TUFAYLI MASSIV AKUSHERLIK QON KETISHIDA XIRURGIK GEMOSTAZNI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyquliyeva Onaxon Yunus qizi

UrDTI Akusherlik va ginekologiya yo'nalishi

1-bosqich Magistratura talabasi

Ilmiy rahbar: PhD., dotsent

Matyaqubov Bunyod Baxromovich

(+998993517334)

Annotatsiya: Gemorragik shok, disseminirlangan tomir ichi qon ivishi va poliorgan yetishmovchiligi bilan kechadigan massiv akusherlik qon ketishi-shoshilinch intensiv terapiya talab qiluvchi va ko'pincha ayollar o'limi(1:30) bilan tugovchi og'ir holatdir. Shu sababli massiv akusherlik qon ketishining xirurgik davolash texnikasini optimallashtirib, ayollar reproduktiv organini saqlab qolish hamda onalar o'limini oldini olish soha mutaxassislari oldida turgan dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Atonik qon ketishi, massiv akusherlik qon ketishi (MAQ), xirurgik gemostaz, yo'ldoshning o'sib kirishi, Kyuvler bachadoni, bachadon ekstirpatsiyasi, B-Lynch bo'yicha choklash

Kirish: Zamonaviy akusherlik muammolari orasida massiv akusherlik qon ketishi (MAQ) kabi tug'ruq asoratlari yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Dunyo bo'ylab tug'ilishlarning aksariyati (65%) tabiiy tug'ruq yo'llari orqali 500 ml dan 1000 ml gacha fiziologik qon yo'qotish bilan sodir bo'lib, onalar va chaqoloqlar hayotiga xavf tug'dirmaydi. Ammo 3-8 % hollarda qon yo'qotish hajmi 1500 ml dan ziyod yoki ayol tana vaznining 2,0% dan ko'p qismi miqdorida bo'lishi mumkinki, bu massiv akusherlik qon ketishi(MAQ) hisoblanadi. Quyidagi mezonlar MAQ uchun xarakterlidir: 1500 ml dan ortiq qon yo'qotilishi, gemoglobin darajasining 4 g/dl dan kam pasayishi hamda shoshilinch ravishda eritrositar massa 4 birlik hajmdan ortiq qon quyish zaruriyati tug'ilishi. Bachadon atoniyasi tufayli MAQ ga olib keluchi omillarga yo'ldoshning o'sib kirishi va chin yopishishi, yo'ldoshning past joylashuvi, retroplatsentar gemotoma, Kyuvler bachadoni, egizak homiladorlik kabilarni misol qilish mumkin. MAQ og'ir asoratlarga olib kelganligi bois, davolashning zamonaviy usullarini taqqoslash va eng optimal usulni amaliyotga joriy qilishni taqozo qilmoqda.

Asosiy qism: Tadqiqot 25 nafar bemorda o'tkazildi. Tadqiqotga "RIOBSIATM Xorazm filiali" ga murojaat qilgan reproduktiv yoshdagi ayollar guruhi tanlab olindi. Barcha bemorlarga bachadondan atonik qon ketishi tashxisi qo'yilgan Tanlab olingan bemorlarning 13 nafarida yo'ldoshning o'sib kirishi va chin yopishishi tashxisi

qo'yilgan, bulardan 10 nafarida yo'ldosh to'liq oldinda kelgani, qolgan qismida esa yo'ldoshning oldinda kelmasdan chin yopishishi kuzatiladi. Bemorlarning boshqa 12 nafarida yo'ldosh o'sib kirmagan holda tug'ruqdan keyingi atonik qon ketishi kuzatilgan. Bu bemorlarning 2 nafarida og'ir preeklampsiya, 3 nafarida ko'p homilalilik, 2 nafarida Kyuvler bachadoni, 1 nafarida reproduktiv texnologiyali homiladorlik tashxisi qo'yilgan. Bemorlarda quyidagi xirurgik gemostaz usullari qo'llanilgan:

1. Ikki juft tomir tutamini bog'lash (a.uterinae, lig.teres uteri)
2. Uch juft tomir tutamini bog'lash (a.uterinae, lig.teres uteri, a.propria ovarica)
3. B-Lynch usulida choklash
4. Bachadonni ortiqlari bilan yoki ortiqlarisiz ekstirpatsiyalash
5. Ichki yonbosh arteriyani bog'lash

Bu bemorlarda bachadondan atonik qon ketishida xirurgik gemostaz taktikasi individual ravishda belgilangan. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi: Tanlab olingan 25 ta bemorning 3 nafarida uch juft tomir tutamini bog'lash va B-Lynch amaliyotlaridan so'ng atonik qon ketishi to'xtagan. 1 nafar bemorda esa uch juft tomir tutamlarni bog'lashsiz faqat B-Lynch usulida choklash xirurgik gemostaz uchun yetarli bo'lgan. 8 nafar bemorda bachadondan atonik qon ketishini to'xtatish uchun avvalo uch juft tomir tutamini bog'lash amaliyoti o'tkazilgan. Bu amaliyot xirurgik gemostaz uchun yetarli bo'lmaganligi sababli 8 nafarining hammasida bachadon ekstirpatsiyasi amaliyoti o'tkazilgan. 3 nafar bemorda avval uch juft tomir tutami bog'langan, so'ngra ichki yonbosh arteriyani bog'lash amaliyoti o'tkazilgan. Xirurgik gemostazning bu turlari bu bemorlarda effekt bermaganligi sababli, gemostaz bachadon ekstirpatsiyasi bilan yakunlangan. Boshqa 3 nafar bemorda avvalo ikki juft tomir tutamini bog'lash, so'ngra bachadon ekstirpatsiyasi amaliyoti o'tkazilgan. 9 nafar bemorda esa tashxislariga ko'ra, oldingi gemostaz usullarisiz faqat bachadon ekstirpatsiyasi o'tkazilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra tanlab olingan 25 ta bemorning 23 nafarida bachadondan atonik qon ketishi bachadon ekstirpatsiyasi(reproduktiv organni yo'qotish) bilan yakunlangan. Bemor tashxisiga ko'ra ikki yoki uch juft tomir tutamlarini bog'lash amaliyotlari aksariyat hollarda qon ketishi profilaktikasi uchun qo'llanilgan, ichki yonbosh arteriyani bog'lash va B-Lynch bo'yicha choklash yuqoridagi xirurgik gemostazlar qon ketishini oldini olishga yetarli bo'lmagan hollarda qo'llanilgan, bachadonni ortiqlari bilan yoki ortiqlarisiz ekstirpatsiyalash amaliyoti oxirgi chora bo'lib, yuqoridagi usullarning barchasi samarasiz bo'lganida qo'llanilgan. Bachadondan ko'p miqdorda qon yo'qotilishi va xirurgik gemostazning cho'zilganligi sababli, bemorlar ilk chilla davridagi rehabilitatsiyasi sekin o'tgan, bu ayniqsa bachadon ekstirpatsiyasi o'tkazilgan bemorlarda yaqqol ko'rinadi.

Xulosa: Tug'ruqda va ilk chilla davrida bachadondan qon ketishining taxminan 70 % qismi atonik qon ketishga to'g'ri keladi. Bachadon atoniyasida massiv qon ketishida qo'llaniladigan usullar: ikki va uch juft tomir tutamlarini bog'lash, ichki yonbosh arteriyani bog'lash, B-Lynch bo'yicha bachadonga chok qo'yish va bachadon ekstirpatsiyasi (ortiqdari bilan yoki ortiqdarsiz) organizmning individual xususiyatlariga ko'ra bemorlarda turlicha natija beradi. Bu usullar zamonaviy bo'lsa ham, ketgan qon miqdori va reproduktiv organni yo'qotilishiga olib kelganligini hisobga olgan holda, xirurgik gemostazning bu turlarini yanada takomillashtirish va eng optimal usulni amaliyotga joriy qilish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyaqubov B.B “Ko'p miqdorda qon ketayotgan holatlarda bajariladigan total va subtotal gisterektomiya jarroxlik amaliyoti texnikasini optimallashtirish “ Toshkent-2022
2. Matyaqubov B.B “Akusherlikda qon ketishlar” Urganch-2023
3. Niyazmetov R.E Matyaqubov B.B “Massive obstetric bleeding “ Monografiya Toshkent-2025
4. <https://my.clevelandclinic.org/health/diseases/24010-uterine-atony>
5. <https://share.google/JG1kVWGCISf5mUkHT>
6. Uterine atony - Wikipedia <https://share.google/7UNXHwdLBSTV9cLc9>
7. Uterine Atony | ACOG <https://share.google/3ETCyH1Djp2vrVqJu>